

## **XALQARO STANDARTLAR BILAN QISHLOQ XO‘JALIGIGA OID STANDARTLARNI UYG‘UNLASHTIRISH**

**A.R.Sodiqov**

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, Qarshi

[Sodiqov84@list.ru](mailto:Sodiqov84@list.ru)

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada xalqaro standartlar bilan qishloq xo‘jaligiga oid standartlarni uyg‘unlashtirish orqali ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish, sanoatni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, yengil sanoat mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirish keltirilgan.*

***Kalit so‘zlar:** raqobatbardoshlik, sifat menejmenti tizimi, standartlash, sertifikatlash, modernizatsiya, devirsifikatsiya.*

### **АННОТАЦИЯ**

*В статье описывается стремительное развитие производства, модернизация и диверсификация промышленности, повышение конкурентоспособности продукции легкой промышленности за счет гармонизации международных стандартов с сельскохозяйственными стандартами.*

***Ключевые слова:** конкурентоспособность, система менеджмента качества, стандартизация, сертификация, модернизация, трансформация.*

### **ABSTRACT**

*This article describes the rapid development of production, modernization and diversification of industry, increasing the competitiveness of light industry products by harmonizing international standards with agricultural standards.*

***Keywords:** competitiveness, quality management system, standardization, certification, modernization, transformation.*

### **KIRISH**


Bugungi kunda jahon taraqqiyotining dunyoviy muammolarini hal qilishning asosiy unsurlaridan biri sifatida standartlashtirishning roli oshib bormoqda. Yagona standartlarning shakllanishi xavfsizlikni ta‘minlash darajasi, ishlab chiqarish jarayonlari va energetik samaradorligini oshiruvchi havf xatarni baholash, shuningdek atrof-muhitni himoya qilish texnologiyalarining faol tarqalishiga yordam beradi. Shu munosabat bilan aytish mumkinki, standartlar – takomillashtirishning muhim qurolidir.

## **MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI**

Mazkur maqolani yoritish jarayonida SH.M. Mirziyoyevning asarlari metodologik manba sifatida belgilandi. Ushbu maqolada ilmiy bilishning mantiqiylik, tarixiylik, izchillik, obyektivlik usulidan foydalanilgan bo'lib, mavzuni yoritishda tavsifiy, qiyosiy metodlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida xalqaro standartlar bilan qishloq xo'jaligiga oid standartlarni uyg'unlashtirish orqali ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish masalasi obyektiv tahlil qilib o'tildi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Xalqaro standartlarni qo'llash va rivojlangan davlatlar milliy standartlaridan foydalanish mamlakatimizda standartlashtirish sohasida ustivor yo'nalishlardan hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining "Standartlashtirish to'g'risida"gi Qonunning 6- moddasiga muvofiq va texnologiya va uskunalar texnik darajasini hisobga olgan holda standartlardan yanada samarali foydalanish uchun "O'zstandart" agentligi normativ xujjatlar fondida bugungi kunda 44000dan ko'proq me'yoriy xujjatlar jamlangan. Ularning 8116 xalqaro standartlar, 20393 davlatlararo standartlar, 8679 xorijiy mamlakatlarning milliy standartlari, 1679 O'zbekiston Respublikasi davlat standartlari, 168 tarmoq standartlar, 4692 texnik shartlar, 334 korxonalar standartlari, 198 rahbariy xujjatlari tashkil qiladi (1-rasm).



### **1-rasm. Me'yoriy xujjatlarning toifalari bo'yicha taqsimlanishi**

Turli sohalarda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarda ISO 9001, ISO 14001, ISO 22000 xalqaro standartlari asosida sifatni boshqarish tizimlari joriy etilmoqda. Jumladan Respublikamiz qishloq xo'jaligi sohasi kesimida standartlarning

qo‘llanilishi tahlil qilinganda turli sohalarda xalqaro standartlar talablariga muvofiq mahsulotlar ishlab chiqarilayotganligini 1-2 jadvalda kuzatishimiz mumkin.

**1 - jadval**

Qishloq xo‘jaligi sohasida standartlarning qo‘llanilishi

| Sohalarning nomlanishi   | Standartlashtirish bo‘yicha qo‘llanilayotgan me‘yoriy hujjatlar soni | Shu jumladan:                      |                              |                          |                          |                              | Xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirilgan |
|--|--|------------------------------------|------------------------------|--------------------------|--------------------------|------------------------------|--|
|  |  | Davlat - lararo standartlar (GOST) | Davlat - standarti (O‘z DSt) | Tarmoq - standarti (TSt) | Texnik shart - lar (TSh) | Korxonalar - standarti (KSt) |  |
| Qishloq xo‘jaligi ekinlari urug‘chiligi                                      | 112  | 99                                 | 13                           | -                        | -                        | -                            | 2  |
| Paxta  | 6  | -                                  | 6                            | -                        | -                        | -                            | -  |
| Chorvachilik   | 72   | 71                                 | 1                            | -                        | -                        | -                            | 16   |
| Tamaki   | 3  | 3                                  | -                            | -                        | -                        | -                            | 1  |
| Meva, sabzavot - poliz   | 93   | 88                                 | -                            | -                        | 5                        | -                            | 17   |
| Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi tomonidan tasdiqlangan me‘yoriy xujjatlar | 71   | -                                  | -                            | -                        | 71                       | -                            | -  |
| Tayyor sut   | 2  | 2                                  | -                            | -                        | -                        | -                            | -  |
| Baliqchilik  | 2  | 2                                  | -                            | -                        | -                        | -                            | -  |
| To‘vuq tuxumi  | 1  | -                                  | 1                            | -                        | -                        | -                            | -  |
| Asalarichilik  | 7  | 7                                  | -                            | -                        | -                        | -                            | -  |

**2-jadval**

**Qishloq xo‘jaligi maxsulotlariga oid uyg‘unlashtirilgan standartlar**

|  | <b>Belgilanishi va nomlanishi</b>  |
|--|--|
|  | O‘z DSt ISO 1134:2010 Noklar – sovuq holda saqlash   |
|  | O‘z DSt ISO 2826:2010 O‘riklar sovuq sharoitda saqlash bo‘yicha yo‘riqnoma   |
|  | O‘z DSt ISO 873:2010 Sovuq sharoitda saqlash bo‘yicha yo‘riqnoma   |
|  | O‘z DSt ISO 8682:2010 Nazoratli atmosfera sharoitida saqlash bo‘yicha yo‘riqnoma                                     |
|  | O‘z DSt ISO 1212:2010 Olmalar – sovuq holda saqlash  |
|  | O‘z DSt ISO 874:2011 Meva va sabzavotlar – namuna olish  |
|  | O‘z DSt ISO 949:2011 Gulkaramlar – sovuq sharoitda saqlash va sovutilgan holda tashish bo‘yicha yo‘riqnoma           |
|  | O‘z DSt ISO 2169:2011 Meva va sabzavotlar – sovuq sharoitda saqlashning fizikaviy talablari – tariflar va o‘lchovlar |
|  | O‘z DSt ISO 2165:2011 Kartoshka – saqlash bo‘yicha yo‘riqnoma  |
|  | O‘z DSt ISO 9833:2011 Qovunlar sovuq sharoitda saqlash va sovutilgan holda tashish                                   |
|  | O‘z DSt ISO 1973:2011 Piyozlar - sovuq sharoitda saqlash bo‘yicha yo‘riqnoma   |
|  | O‘z DSt ISO 6659:2011 Shirin qalampirlar – sovuq sharoitda saqlash va savutilgan holda tashish bo‘yicha yo‘riqnoma   |
|  | O‘z DSt ISO 2166:2011 Sabzilar – saqlash bo‘yicha yo‘riqnoma   |
|  | O‘z DSt ISO 750:2011 Meva va sabzavot mahsulotlari – titratlanuvchi kislotani aniqlash                               |
|  | O‘z DSt ISO 7560:2011 Bodring – saqlash va sovuq sharoitda tashish   |
|  | O‘z DSt ISO 3659:2011 Meva va sabzavotlar – sovuq sharoitda saqlashdan so‘ng yetiltirish                             |
|  | O‘z DSt ISO 1842:2011 Meva va sabzavot mahsulotlari - pH ni aniqlash   |
|  | O‘z DSt ISO 5525:2011 Pamidor – sovuq sharoitda saqlash va tashish bo‘yicha yo‘riqnoma                               |
|  | O‘z DSt ISO 3634:2011 Sabzavot mahsulotlari – xlorid tarkibini aniqlash  |

|   |
|---|
| O‘z DSt ISO751:2011 Meva va sabzavot mahsulotlari – suvda erimaydigan moddalarni aniqlash   |
| O‘z DSt ISO 1026:2011 Meva va sabzavot mahsulotlari: past bosim ostida quritish orqali mahsulotlardagi quruq moddalar tarkibini va azeotropik uslubda moddalarni tarkibiy qismga ajratish orqali suvli modda tarkibini aniqlash |
| O‘z DSt ISO 1955:2011 Sitrus mevalar va ulardan qayta ishlangan mahsulotlar: efir moyi tarkibini aniqlash (namunaviy uslub)   |
| O‘z DSt ISO 3631:2011 Sitrus mevalari - saqlash bo‘yicha yo‘riqnoma   |
| O‘z DSt ISO 2447:2011 Meva va sabzavot mahsulotlari - qalay tarkibini aniqlash  |
| O‘z DSt ISO 2848:2011 Meva va sabzavot mahsulotlari – etil spirti miqdorini aniqlash  |
| O‘z DSt ISO 2168:2011 Uzum saqlash bo‘yicha yo‘riqnoma  |
| O‘z DSt ISO 9526:2011 Mevalar, sabzavotlar va ulardan olingan mahsulotlar: olovli atom absorbsion spektrometriya uslubida temir tarkibini aniqlash  |
| O‘z DSt ISO 6662:2011 Olxo‘rilar – sovuq sharoitda saqlash bo‘yicha yo‘riqnoma  |
| O‘z DSt ISO 2173:2011 Meva va sabzavot mahsulotlari – eruvchan qattiq moddalarni aniqlash - refraktometrik uslub  |
| O‘z DSt ISO 762:2011 Meva va sabzavot mahsulotlari: mineral aralashmalar tarkibini aniqlash   |

## **XULOSA**

Xalqaro standartlar bilan qishloq xo‘jaligiga oid standartlarni uyg‘unlashtirish orqali ishlab chiqarishni joriy etilishi sifat sohasidagi maqsadlarning bajarilishiga, auditlar natijasida nomuvofiqliklar sonining kamayishiga, potensial muammolarni bartaraf etish bo‘yicha oldini oluvchi amallarning to‘g‘rilovchi amallarga nisbatini, mahsulot rentabelligining oshishiga, iste‘molchilar qanoatlanganligining oshishiga, shuningdek qishloq xo‘jaligi samaradorligining oshishiga olib keladi.

## **REFERENCES**

1. O‘zbekiston Respublikasining birinchi prazidenti I.A.Karimov, “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari”, O‘zbekiston: Toshkent, 2009y., 486 b.

2. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida. - T.:2017 yil 7 fevral, PF-4947-sonli Farmoni.
3. Ismoilov B.X. “O‘zbekiston respublikasida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda xalqaro standartlarni joriy etish usullari” Toshkent, 2012y
4. Mamasaliev, M. M. (2020). MAIN DIRECTIONS OF THE INFLUENCE OF MODERN CIVILIZATION ON THE SPIRITUAL IMAGE OF THE INDIVIDUAL. Вестник науки, 3(11), 5-8.
5. Allanazarov, M. K., & Mamasaliev, M. M. (2020). ANALYSIS OF COMPREHENSION METHODS IN THE GNOSEOLOGY OF ALLAME TABATABAI. In ИННОВАЦИОННОЕ РАЗВИТИЕ: ПОТЕНЦИАЛ НАУКИ И СОВРЕМЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ (pp. 106-109).